



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY
VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI



BUXORO
DAVLAT
UNIVERSITETI
1930



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
INNOVATSION RIVOJLANISH
VAZIRLIGI

**“БАШАРИЯТ МАЪНАВИЙ ЮКСАЛИШИ ВА
ЁШЛАР ТАРБИЯСИДА АЛИШЕР НАВОИЙ
МЕРОСИНING АҲАМИЯТИ”**

мавзусидаги республика онлайн

илмий-амалий анжумани

МАТЕРИАЛЛАРИ



*Alisher
Navoiy*

580

**5 февраль 2021 йил
Бухоро**



**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА
МАХСУС
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

**БАШАРИЯТ МАЪНАВИЙ
ЮКСАЛИШИ ВА ЁШЛАР
ТАРБИЯСИДА АЛИШЕР НАВОИЙ
МЕРОСИНИНГ АҲАМИЯТИ**

мавзуидаги республика онлайн илмий-амалий конференция

МАТЕРИАЛЛАРИ

2021 йил 5 февраль. Бухоро

<i>Murodova Gulchehra</i> “HAYRAT UL ABROR” DOSTONIDAGI SO‘Z TA‘RIFI BOBI NASHRLARINING QIYOSIY TAHLILI... ..	68
<i>Шоҳиста Низомова</i> АЛИШЕР НАВОИЙ ШЕЪРИЯТИДА СУВ ВА ОЛОВ ОБРАЗИНИНГ ИФОДАЛАНИШИ.. ..	71
<i>G. S.Omarova, M. R. Bozorbayeva</i> “LAYLI VA MAJNUN” DOSTONIDA MUALLIF DADIY NIYATINING IFODALANISHI.....	76
<i>Ражабова Маърифат</i> САМАНДАР – АБАДИЙ ҲАЁТ ТИМСОЛИ.....	80
<i>Зулайҳо Раҳмонова</i> АЛИШЕР НАВОИЙ ИЖОДИЁТИДА ТАВБА ТАЛҚИНЛАРИ... ..	84
<i>Sadullayeva Shahlo, Shamsiddinova Sitara</i> "LISON UT-TAYR" DOSTONIDA HAYRAT VA FAQR-U FANO VODIYLARINI TASVIRLASHDA TAMSILIIY HIKOYATNING AHAMIYATI.	89
<i>Safarova Shahlola</i> “SABB‘AI SAYYOR” DOSTONI HAMD BOBINING G‘OYAVIY –BADIY TAHLILI... ..	94
<i>Hilola Safarova, Mohigul Ismatova</i> ALISHER NAVOIYNING “FARHOD VA SHIRIN” DOSTONIDA OBRAZ YARATISH MAHORATI.....	98
<i>Sayliyeva Zarina</i> “HIRIY JON, BADANDIR XUROSON ANGA...”.....	100
<i>G. Sayidova</i> ALISHER NAVOIY ASARLARIDAGI O‘XSHATISHLARNING TASNIFI... ..	104
<i>H. H. Tevaev</i> АЛИШЕР НАВОИЙ ФАЛСАФАСИДА ИНСОН МАЪНАВИЙ КАМОЛОТИ.	107
<i>Xudoyorova Nigora</i> NAVOIY NAZMINING JILOLARI.....	111
<i>Д.К.Эргашева</i> ПОЭТИЧЕСКОЕ НАСЛЕДИЕ АЛИШЕРА НАВОИ.....	113
<i>Ergasheva Naima</i> ALISHER NAVOIY G‘AZALLARIDA TANOSUB SAN‘ATI.....	118
<i>Ҳусниддин Эшонқулов</i> МАЪШУҚА ВА ОШИҚ ҲОЛИГА ХОС ИСТИОРАЛАШГАН ЭПИТЕТЛАРИНИНГ ҚОФИЯЛАНИШИ.....	120
<i>G. Sh.Qobilova</i> “SAB‘AI SAYYOR” DOSTONINING ILMIIY-TANQIDIY MATNINI YARATISHDA ASOS BO‘LGAN MANBALAR.....	124
<i>Дилрабо Қувватова, Зарнигор Соҳибова</i> АЛИШЕР НАВОИЙ ВА ОГАҲИЙ ШЕЪРИЯТИДА БАҲОР ТАСВИРИНИНГ МУШТАРАК ЖИҲАТЛАРИ... ..	126
<i>Halimova Shahlo</i> ALISHER NAVOIY TARJE‘BANDLARINING TASVIR MONIYATI... ..	130
<i>Hojiyeva Nigina</i> АЛИШЕР НАВОИЙ АСАРЛАРИДА ТАБИАТ ТАСВИРИ..	133
<i>Azimjon Hamidov</i> ALISHER NAVOIY G‘AZALLARI NASHRIDAGI AYRIM TAFOVUTLAR HAQIDA MULOHAZALAR.....	137
<i>Vaxobova Shoxida</i> “MUNSHAOT” MAKTUBLARIDA NAVOIY QARASHLARINING AKS ETISHI.....	140

1. Алишер Навоий. Садди Искандарий. Насрий баёни. www.ziyo.uz.comkutubxonasi.

2. Азимов И. Алишер Навоийнинг насрий асарларида кесим марказли бош бўлакли гапларнинг шаклий ва мазмуний хусусиятлари: НДА. – Тошкент, 2001.

3. Алишер Навоий. Қомусий луғат. II жилд. – Тошкент: Шарқ, 2017.

4. Аширбоев С. Алишер Навоийнинг насрий асарларидаги содда гапларнинг таркибий ва маъно хусусиятлари: ДДА. – Тошкент, 1990.

5. Бафоев Б. Кўҳна сўзлар тарихи. Тошкент: – ФАНИ, 1991;

ALISHER NAVOIY G'AZALLARI NASHRIDAGI AYRIM TAFOVUTLAR HAQIDA MULOHAZALAR

Azimjon Hamidov,

Matnshumosli va adabiy manbashunoslik mutaxassisligi 2-bosqich magistranti (BuxDU)

Alisher Navoiy ijodiga bo'lgan ma'naviy ehtiyoj o'z davridayoq mavjud bo'lib, keyingi asrlarda ham kuchayib bordi. Buni taniqli ijodkor asarlarining kitobat qilinishi, toshbosma nashrlarining amalga oshirilishi va o'tgan asrdan e'tiboran ko'plab nusxalarda nashr qilinishi ham dalillaydi. Shoir lirik merosining ilmiy-taqidiy matni yaratilib, uning akademik va ommabop nashrlari XX asrda bir necha bor chop etildi. Bular orasida 20 jildlik "Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami"ning 1-6-jildlari alohida ahamiyatga ega. Undan Navoiyning dastlabki devonlari va "Xazoyin ul-maoniy" kulliyoti ham o'rin olgan. Shoirning "Badoye' ul-bidoya" devonidagi g'azallarining "Xazoyin ul-maoniy"ga ham kiritilishi jarayonida muallif o'z tahriridan o'tkazganini ham e'tirof etadi [Navoiy 1988:], shuningdek, taniqli navoiyshunos A.Hayitmetov, matnshunos A.Erkinovlar ham shoir tomonidan lirik merosi shunday tahrirlarga bois bo'lganini ta'kidlashadi [Hayitmetov 1970: 152-155; Erkinov 1997: 9]. Biz ayni masalani "Badoye' ul-bidoya" devonidagi g'azallarining "Xazoyin ul-maoniy"dagi nashrlaridagi ayrim tafovutlar misolida o'rganishga harakat qilamiz. Buning uchun "Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami"ning 1-jildidagi g'azallar matni 3-jildidagi matni bilan qiyosiy o'rganiladi.

Alisher Navoiy g'azallari nashrlarining matniy tafovutlari faqatgina shoir tahrirlarining natijasi bo'lmay, ular kotiblar tomonidan o'zgartirilgan holda ko'chirilishi, arab yozuvidan joriy yozuvga aylantirilganda, asliyatda bir harf bilan farqlanuvchi shaklan yaqin so'zlarning turlicha o'qilishidan kelib chiqqan bo'lishi

mumkin. Ayni masalalarni imkon qadar ilmiy o'rganib, muayyan xulosalarga kelish ulug' shoir g'azallaridagi mohiyatni teran anglashga imkon yaratadi.

G'azallar matnidagi bir qator so'z bilan bo'g'liq tafovutlarningulug' shoirning o'zi va taniqli adabiyotshunoslar e'tirof etganidek, muallif tahriri asosida yuzaga kelgan bo'lishi ehtimoli ko'proq. Quyidagi tahlillar shunday xulosalarga kelishimizga asos bo'ladi. Chunonchi, "Badoye' ul bidoya" tarkibida kelgan hamd g'azallardan biridagi "mus'hafi ruxsoring" birikmasi "G'aroyib us sig'ar"da "safhayi ruxsoring" tarzida keltiriladi:

Ey, safhayi ruxsoring azal xattidin insho,

Debochayi husnungda abad tug'rasi tug'ro [Navoiy 1988:].

"Badoye' ul-bidoya"da ushbu bayt "Yuzing qur'oni azal xati bilan yaratilgan, Abad nuqtasi sening go'zalliging boshlanishining sarlavhasidir" degan mazmunni ifodalagan. "G'aroyib us sig'ar"da esa, "Yuzing sahifasi azal xati bilan yaratilgan, Abad nuqtasi sening go'zalliging boshlanishining sarlavhasidir" tarzidagi ma'no mujassamlashgan. Bir qarashda, *mus'haf* va *sahfa* so'zlari ma'noga jiddiy ta'sir ko'rsatmagandek tuyuladi. Negaki, "mus'haf" Qur'on ma'nosini ifodalasa, hamd g'azaldagi "safha" ham Qur'onning bir qismi, ya'ni sahifani xotirga keltiradi. "Mus'haf"ni yuzga nisbatlash bilan ulug' shoir ilohiy mazhar vositasida uning Yaratuvchisi haqida badiiy mushohada qilishga erishadi. Ayni choqda "sahfa" ham xuddi shunday adabiy niyatga xizmat qildiriladi. Biroq "sahfa"ning shaklan yuzga yaqinligi ulug' shoirning tahririga bois bo'lgan bo'lishi mumkin. Bunday misollarni bir necha gazallar matida kuztish mumkin. Jumladan, "mashshotayi husnungdurur" [Navoiy 29] birikmasi "G'aroyib us-sig'ar"ga kiritilgan g'azalda "Mashshotayi sun'ungdurur" tarzida namoyon bo'ladi:

Mashshotayi sun'ungdurur ulkim, nafas ichra

Kun ko'zgunin oqshom kulidin qildi mujallo [3, 25].

"Badoye' ul bidoya"da ushbu bayt quyidagi mazmunni ifodalaydi: (U shunday) husning pardozchisiki, nafasi bilan kun kozgusini oqshom kulidan toza qildi. Keyingi devonda bu baytning egasi "yaratilishning pardozchisi" mazmunini ifodalovchi birikma bilan o'zgartirilgan. O'rin almashgan birikmalarning ikkalasi ham Allohni xotirga keltirishga xizmat qilgan. Faqatgina keyingi o'zgarishda ma'shuqaning yaratilishi nazarda tutilib, ma'no kuchaytirilgan. Baytda tun va kun almashinishi obrazli tasvirlangan. Buning uchun ulug' shoirga yuzi xira bo'lgan oynani kul bilan tozalash bilan bog'liq fikr qo'l kelgan. Ayni choqda u go'zal ma'shuqaning yaratishini, unga jon bag'ishlanishini ("nafas ichra") Parvardigorning ulug' in'omi sifatida tasvirlash imkonini bergan. Ma'shuqaning tani oqshom kulidek edi, unga jon kirishi bilan u kun – quyosh ko'zgunidek

porloqlik kasb etdi. Baytdagi “nafas ichra” birikmasi ulug` shoirga “mashshotayi sun`ing” birikmasini qo`llashni ma`qul topilishiga omil bo`lgan ko`rinadi.

Ayrim o`rinlarda arab yozuvida bir harf bilan farqlanuvchi, shaklan bir-biriga yaqin bo`lgan so`zlarning bir g`azalning turli devonlardan o`rin olgan matni bilan tofovut hosil qilishi muallif tahriri yoki boshqa omillar asosida yuzaga kelgani xususida muayyan qo`nimga kelish imkonini kamaytiradi. Chunonchi, “malak” ملك va “falak” فلك so`zlari bilan bog`liq matniy tafovutlar shular jumlasidandir. Bu ikkala so`z kotiblar tomonidan yozilgan matnda ba`zan farqlanishi murakkablashib ham qoladi. “Badoye` ul-bidoya”dagi to`qqiz baytli na`t g`azalning to`rtinchi baytida “malak” timsoli keltirilgan bo`lib, u quyidagicha:

Malak qolib buroqingdan, emas vasfi falaksur`at,

Qamar yorub jamolingdan, emas na`ting qamarsiymo[1, 32].

Baytda “Malak sening Buroqingdan ortda qolgani bois uning vasfi falaksur`at, yani tez yuruvchi, chaqqon emas, oy jamolingdan yorishgani bois sening na`ting – maqtovingda “oy yuzli” vasfini qo`llab bo`lmaydi” degan mazmun badiiy ifidalangan. G`azalning “G`aroyib us-sigar”dan o`rin olgan matnida ushbu baytdagi “malak” so`zi “falak” tarzida keltirilgan [3, 28].

Baytda payg`ambarimiz Muhammad (a.s.v.)ning Jabroil (a.s.)keltirgan Buroq otiga minib Alloh taoloning huzuriga borishlari – Me`roj tuni badiiy tasvir etilgan. Manbalarda ma`lumot berilishicha, payg`ambarimizda me`rojga ko`tarilish va qaytish holi juda tez bir fursatda ro`y bergan. Shu bois Navoiy ushbu na`t g`azalda “vasfi falaksur`at”ni qo`llab chaqqonlik, tezlikka alohida e`tibor qaratadi. Masalaning mohiyatiga samoda tez harakatlanish va keyingi baytlardagi ma`no muayyan darajada aniqlik kiritishi mumkin. Ta`kidlash lozimki, badiiy voqeilik samo qatlarida ro`y berayotgani bois Navoiy qarashlariga ko`ra sayyoralar doimiy harakatda bo`lsa-da, ularning “falaksur`at”, ya`ni chaqqonligini “falak” so`zi vositasida Buroq bilan qiyoslashga asos bo`lolmaydi. Buroq ham malak, ya`ni farishta bo`lgani holda uning boshqa malaklardan farqi aynan “falaksur`at”likda namoyon bo`lishini taxmiz qilish mumkin. Negaki, ushbu g`azal matnida payg`ambarimizning zohiriy olamdagi tungi sayrlari badiiy tasvir etilgan. Fikrimizni oltinchi baytdagi “Falak vodiylari qat`iga azming surib markab” [1, 34] misrasi ham quvvatlantiradi. Aynan shu g`azalning maqta` bayti ikkala devonda “xoshok” va “do`zax” so`zlarining o`rin almashishi bilan keltiriladi. “Badoye` ul-bidoya” u quyidagicha ko`chirilgan;

Navoiy xush ko`rar olamni oning yodidin, yo`qsa

Anga xoshok aro o`tdekdurur dunyovu mofiho[1, 34].

Baytda “Navoiy olamni Uning, ya`ni Muhammad (s.a.v.)ning yodi bois xush ko`radi, yo`qsa dunyo va uning ichidagi mavjudotlar xoshak ichidagi o`t kabidir” degan ma`no badiiy ifoda etilgan. G`azalning “xoshok” o`rnida “do`zax” so`zi

qoʻllangan “Gʻaroyib us-sigʻar”dagi matnidan [3, 28] esa yuqoridagi mazmun quyidagicha namoyon boʻladi: “Navoiy olamni Uning, yaʼni Muhammad (s.a.v.)ning yodi bois xush koʻradi, yoʻqsa dunyo va uning ichidagi mavjudotlar doʻzax ichidagi oʻt kabidir”. Xoshokning ichida oʻt boʻlishi hali yonish jarayoni tigamagan xoshokni koʻz oldiga gavdalantiradi. Bundan xoshokning dunyo, “mosifo”, yani uning ichidagi mavjudotlar esa oʻt ekanligi ravshanlashib qoladi. Ulugʻ shoirning adabiy niyati koʻra, Muhammad (s.a.v.)ning yodlarini xotirga keltirmaydigan dunyo va unga taalluqli narsalar lirik qahramon uchun xoshok ichidagi oʻt singaridir. Unga koʻngil qoyib boʻlmaydi. Bu dunyoda paygʻambar (s.a.v.) sunnatlariga amal qilib yashashgina “*dunyovu mofiho*”ni qadrini oshira oladi. Chunki paygʻambarimiz (s.a.v.) goʻzal axloq bilan bu dunyoda yashab, barchaga oʻrnak boʻlganlar. “Xoshok” oʻrnida “doʻzax”ning qoʻllanishi shoir adabiy niyatini yanada mubolagʻaviy tarzda tasvirlash imkonini bergan.

Koʻrinadiki, turli devonlardan oʻrin olgan muayyan gʻazallarning matniy tafovutlari xususida bayon etilgan ushbu mulohazalarimiz bu borada hali muhim tadqiqotlar amalga oshirish zarurati borligidan dalolat beradi. Bunday tafovutlarni qiyosiy oʻrganish asosida ulugʻ shoir tomonidan kiritilgan tahrirlarga maʼlum darajada oydinlik kiritish va ayrim xatoliklarni tuzatish imkoniyati vujudga keladi. Bu esa ulugʻ shoirning gʻazalda ilgari surilganumumbashariy gʻoyalarini chuqurroq oʻrganishga omil boʻladi.

Adabiyotlar:

1. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. XX томлик, 1-том, Тошкент: “Фан”, 1987.
2. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. XX томлик, 3-том, Тошкент: “Фан”, 1988.
3. Эркинов А. Матншуносликка кириш. Тошкент, 1997.
4. Хайитметов А. Навоий даҳоси. Тошкент: Ф.Фулом номидаги бадий адабиёт нашриёти, 1970.

“MUNSHAOT” MAKTUBLARIDA NAVOIY QARASHLARINING AKS ETISHI

Vaxobova Shoxida,

Buxoro davlat universiteti magistri

Noma Sharq sheʼriyatidagi janrlardan biri boʻlib, muallifning nazmda yoki nasrda yozilgan maktubi hisoblanadi. Mumtoz adabiyotimizda maktublar shunchaki bitilgan xatlar boʻlmay, badiiyatning oʻziga xos turi –insho sanʼati sifatida yuzaga kelgan, chuqur mazmunga va goʻzal badiiy ifodaga ega boʻlgan. Maktub janri asosan arab va fors tillarida yaratilgan. Oʻzbek adabiyoti tarixida munshaotning shakllanishi va rivojlanishi Alisher Navoiy ijodi bilan bogʻliq, desak